

XITOIY TILIDA QURILISH VA ME'MORCHILIK ATAMALARIDAGI SEMANTIK O'ZGARISHLAR

Umida Irgasheva
TDSHI, Xitoyshunoslik fakulteti, Lingvistika yo'nalishi
2-kurs magistranti

Maqolaning qisqacha annotatsiyasi: Xitoy tilida qurilish va me'morchilik atamalari hozirgi kundagi eng dolzarb mavzulardan biridir. Maqolada aynan qurilish atamalari leksik-semantik va struktur jihatdan tahlil qilingan. Aynan shu tahlil bo'yicha atamalar tanlab olinib tadqiq qilingan.

Hozirgi zamon tilshunosligida biror bir sohaga oid bo'lgan maxsus so'zlarni alohida lingvistik tizim sifatida o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar talaygina. O.P.Frolova, V.M.Solntsev, M.M. Bekmurodov, S.G.Kurbatova va boshqalarning ilmiy ishlari shu sohaga tegishli bo'lgan ishlar hisoblanadi¹.

O'zbek tilshunosligida ham bu borada ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Masalan, A.A. Karimov, S.A. Nosirova, M.Sh. Saidova, I.X. Pardayeva, M.S. Ahatovalarning ilmiy ishlari aynan tilshunoslikda termin va terminologiya masalalarining o'rganilishiga bag'ishlangandir².

Ma'lumki, tilshunoslikda va aynan o'zbek tilshunosligida "atama" tushunchasi uch xil ma'noda talqin etiladi, ya'ni, o'zbek tilshunoslari "atama" tushunchasi asosida o'z ishlarida biror sohaga oid maxsus so'zlarni "termin", "tematikguruh" yoki "semantikguruh" sifatida ko'rib chiqadilar. Avvalambor shuni aytib o'tish lozimki, "atama" va "termin" tushunchalarini sinonim deb qarash biroz bahas talab masala. Chunki, hamma so'z ham termin bo'la olmaydi, ya'ni, biror sohaga oid ma'lum bir so'zlar guruhiga atamalar deb qaralsa, bu guruh ichiga kiruvchi so'zlar umumqo'llaniladigan so'zlar bo'lishi ham mumkin. Masalan, me'morchilikka oid bo'lgan xoda, to'sin, pardevor, lomboz so'zlari shu soha mutaxassislari bo'lmaganlar orasida ham quruvchilikda ko'p ishlatiladi, bunday holatda ushbu guruhdagi so'zlarni atamalar deb talqin etish tog'ri hisoblanadi. Aynan shu guruhga terminlarguruhi deb qaralgan holat daesa, ushbu guruhdan umumqo'llaniladigan so'zlar chiqarib yuboriladi va shunday so'zlar kiritiladiki, bu

¹Фролова О.П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка. Новосибирск.: 1981; Солнцев В.М. Очерки по современному китайскому языку. М.: 1957; Бекмуродов М.М. Лексико-семантический и структурный анализ строительной терминологии. Автореферат. Душанбе, 2002; Курбатова С.Г. Диахронный и синхронный лексико-грамматический анализ французской терминологии по телекоммуникации. Автореферат. Санкт-Петербург, 2003.

²Носирова С.А. Хозирги замон хитой тили дипломатик атамаларининг лексик-семантик, структур тахлили. Фил. ф.н. дис. Тошкент. 2008. 150 б; Каримов А.А. Хитой тилидаги хисоб сўзлар. Тошкент. "Фан ва технологиялар марказининг босмахонаси". 2003; Saidova M.Sh. "Namangan shevalaridagi qarindoshlik terminlarining leksik-semantik tahlili" Fil. fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., 1995.137b; Pardayeva I.X. O'zbek tilining zargarlik terminologiyasi Fil.fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., 1994. 128b; Ahatova M.S. O'zbek tilining yog'ochsozlik terminologiyasi. Fil.fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., 2004.173b.

soʻzlar faqatgina ushbu sohamutaxassislari ishlatadigan, tor doirada qoʻllaniladigan maxsus soʻzlar guruhini tashkil etadi.

“Termin –(lot. Terminus – chek, chegara, chegarabelgisi) – maxsusilm-fan yokifaoliyatdoirasidagitushunchaniifodalovchisoʻzyokisoʻzberikmasi”³.

O.S.Ahmanovanning fikricha, “termin maxsus tushunchalarni aniq ifodalash va xos narsalarni toʻgʻri talqin etish maqsadida vujudga keltirilgan (qabul qilingan, oʻzlashtirilgan) tildagi (ilmiy, texnikaviy va b.) maxsus soʻz yoki soʻzlar birikmasidir”⁴.

Tematik guruh – turli xil nutq birliklariningbir mavzu atrofida ekstralingvistik parametrlarga asoslangan holda jamlangan guruhi⁵.

Ushbumaqolada xitoy tilidagi qadimgi qurilish va meʼmorchilik atamalarini ekstralingvistik va asllingvistik faktorlarga koʻra tematik guruhlariga ajratilishi va hozirgi zamon xitoy tilida ushbu guruh tarkibiga kiruvchi atamalar semantikasida qanday oʻzgarishlar sodir boʻlganligi koʻrsatib beriladi.

Mazkur tahlilni amalga oshirishda asosiy material qilib Xitoy qadimiy binolari terminlari izohli lugʻatidan tanlab olingan xitoytilidagi qurilish va meʼmorchilik bilan bogʻliq 108 ta atamadan foydalanildi. Ushbu tanlab olingan atamalarning hozirgi holatini taqqoslash uchun esa xitoycha – ruscha katta lugʻat tadqiqotning ikkinchi asosiy materiali hisoblanadi⁶.

Tahlil jarayonida tanlab olingan 108 ta qurilish va meʼmorchilikka oid atama ekstralingvistik faktorga koʻra oʻzaro tematik jihatdan 3 guruhgaboʻlindi. Bular: *bino asosi va sinch qismi bilan bogʻliq atamalar guruhi, xitoy meʼmorchiligida binoning yuqori (tom) qismi bilan bogʻliq atamalar guruhi hamda xitoy meʼmorchiligida ishlov berish (pardozlash) bilan bogʻliq atamalar guruhi*.

Asllingvistik faktorga yaʼni maʼno jihatdan atamalarning oʻzgarganlik va oʻzgarmaganlik holatlariga koʻra quyidagi guruhlariga ajratildi: *maʼnotorayish, kengayish, koʻpayish, maʼnoni asl holatda saqlab qolish va umuman oʻzgarish*.

Bunda maʼno torayish holati 17 ta: 方形台基 – [fāngxíngtáijī] “kvadratsh aklid agiasos”, 须弥座台基 – [xūmízúètáijī] “budda haykallari asosi, budda ibodatxonasi”, 台明 – [táimíng] “asosning yer ustida yaqqol koʻrinib turadigan qismi”, 梁柱 – [liángzhù] “ustun – toʻsin”, 石碇 – [shídìng] “toshlilangar”, 斗拱 (料拱, 料拱) – [dǒugǒng] “yelkan (палец), 耍头 - [shuǎtóu] hozirgi zamon xitoy tilida mavjud emas, lekin uning sinonimi蚂蚱头- [mázhātóu] mavjud, mazha chigirtka maʼnosida ishlatiladi. Ishlatilish doirasi toraygan花牙子 – [huāyázi] “boʻrtib chiqqan gulliaraqi”. Hozirgi zamon xitoy tilida mavjud, lekin toʻliq shaklda emas.牙子burma, boʻrtiq, doʻng maʼnolarini anglatadi. Ishlatilish doirasitoraygan.

³ЯрцеваВ.Н. Лингвистическийэнциклопедическийсловарь.- М.1990.

⁴Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М., 1966.

⁵Жерибило Т.В. Словарь лингвистических терминов. - Назрань: ООО «Пилигрим», 2010.

⁶中国古建筑术语辞典/ 王效清. - 北京: 文物出版社, 2007年.3600词; 汉俄大词典/ 顾柏林主编. - 上海: 上海外语教育出版社, 2009. 120000词.

Ma'no umuman o'zgarish holati 6 ta atamada kuzatildi: 台基 – [táijī] “asos (fundament)” atamasining o'rniga hozirgi zamon xitoy tilida 基础 – [jīchū], 地基 – [dìjī] atamasi ishlatiladi. 台基 atamasida ma'no umuman o'zgarganlik holati kuzatiladi ya'ni hozirda bu atama “platforma” ma'nosida ishlatiladi, 埋头 – [máitóu] “asosning yer ostidagi qismi” atamasi hozirgi zamon xitoy tilida o'z ma'nosini umuman o'zgartirgan, ya'ni ushbu atama hozirda “birorbirish-harakatga boshi bilan sho'ng'ib ketish” ma'nosida qo'llanadi. M: 埋头工作 – [maitougongzuo] “ishga boshi bilan sho'ng'ib ketgan”, hozirdagi sinonimi 埋首 – [maishou] dir. 庑殿 – [wǔdiàn] “Xitoy qadimgi me'morchiligida bino tomining baland qismi”. Hozirgi zamon xitoy tilida ushbu atama “hamma tomondan ibodatxona zallari bilan o'ralgan ulkan bino” ma'nosida ishlatiladi.

Ma'no kengayish 2ta atamada kuzatildi: 屋脊 – [wūjǐ] “tom qirradi”, 墙 – [qiáng] – “devor”.

Ma'no ko'payish 8ta atamada kuzatildi: 天花 – [tiānhuā] – “shift bezagi” hozirgi zamon xitoy tilida mavjud, me'morchilikda [tianhua ban] – “shift” ma'nosida ishlatildi. Undan tashqari, tibbiyotda “suvchechak” ma'nosida ham ishlatiladi. 构架 [gòujià] – “sinch” hozirgi zamon xitoy tilida konstruksiya, struktura, kompozitsiya ma'nolarida ham qo'llanadi. M: 作品构架 – [zuopingoujia] “asarstrukturalari” – [mén] – “eshik” hozirgi zamon xitoy tilida mavjud, keng qo'llaniladi. Kirish yo'li, yo'lak, qulf, zanjir, yo'l, usul, oila, sulola, avlod, maktab, sekta, soha, ixtisos, mutaxassislik, tip, usul, turma'nolari ham mavjud. 罩 – [zhào] – “devordagi gulli jild” hozirda mavjud, lekin “zi” suffiksi bilan birga ishlatiladi. Yolg'iz o'zi o'ramoq, yopmoq, abajur, tovuq uchun katak, qalpoq, ustki kiyim, to'r (baliq tutadigan to'r) ma'nolarida ham ishlatiladi.

Qolgan 75 ta atama hozirgi zamon xitoy tilida mavjud emas (石碁 – [shídīng] “toshlilangar”, 台明 – [táimíng] “asosning yer ustida yaqqol ko'rinib turadigan qismi”, 梁柱 – [liángzhù] “ustun – to'sin” 柱顶石 – [zhùdǐngshí] “toqiravoq” va boshqalar), me'morchilikda qo'llanilish doirasi toraygan, ma'nosini qadimda qanday holatda bo'lsa, shundayligicha saqlabqolgan.

Olib borilgan tahlillar natijasida xitoy tilida qurilish va me'morchilik atamaları tematik guruhlariga ajratilib, ularning semantikasidagi o'zgarishlar hozirda qay holatdaliği aniqlandi. Tahlil natijasida me'morchilikka oid qadimgi atamalarning aksariyati hozirgi zamon xitoy tilidagi o'rnini yoqotgan, me'morchilikda qo'llanish doirasini hamda ma'nosi toraygan degan xulosaga kelindi.

Foydalanilgana dabiyyotlar ro'yxati:

1. 中国古建筑术语辞典/ 王效清。 - 北京: 文物出版社, 2007年。
2. 汉俄大词典/ 顾柏林。 - 上海: 上海外语教育出版社, 2009年。
3. Van Dayu. Chjunghualunchjunvenhua. 王大有。中华龙种文化。 - 北京: 中国时代经济出版社, 2006。

4. Hu Chjaohua. Chjunhuashenlun. 胡照华。中华神龙。 - 北京：中国城市出版社， 2003.
5. 识别中国古建筑/ 李金龙著， 绘。 - 上海：上海书店出版社， 2008.
6. 中国建筑文化/ 王蔚， 思录编著。 - 北京：时事出版社， 2009.